

Analysis of 10-Year Macroeconomic Indicators of the Republic of Korea

Ulugmurodov Farhod Faxriddinovich

Assistant teacher at the department of digital economy, Samarkand institute of economics and service

Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li

Student of the faculty of "Economics" Samarkand institute of economics and service

Abstract: Ushbu maqolada Koreya Respublikasining so'nggi o'n yil ichidagi asosiy iqtisodiy va makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida yalpi ichki mahsulot (YIM), inflyatsiya, mehnat bozori ko'rsatkichlari, tashqi savdo va investitsiya oqimlari kabi asosiy indikatorlar o'rganildi. Shuningdek, iqtisodiy o'sishning barqarorligi, inqirozga chidamliligi va makroiqtisodiy siyosatning samaradorligi tahlil qilinadi. Maqolada so'nggi o'n yil ichida kuzatilgan iqtisodiy tendensiyalar, ularning global iqtisodiyot va regional rivojlanish bilan bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari orqali Koreya iqtisodiyotining o'sish mexanizmlarini va siyosiy choralarni yanada samarali shakllantirish holatlari ko'zda tutiladi.

Keywords: Koreya Respublikasi, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot (YaIM), inflyatsiya, ish bilan bandlik, tashqi savdo, investitsiyalar, iqtisodiy o'sish, makroiqtisodiy siyosat, iqtisodiy tahlil.

Kirish.

Hozirgi davrda jahon xo'jaligi tizimi globallashuv, texnologik taraqqiyot va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ta'sirida jadal rivojlanmoqda. Mamlakatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar nafaqat milliy iqtisodiyotlarning o'sish sur'atlariga, balki ularning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, ikki tomonlama savdo munosabatlarini o'rganish va tahlil qilish zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda Osiyo mintaqasi jahon iqtisodiyotining eng faol va tez rivojlanayotgan hududlaridan biriga aylandi. Ushbu mintaqada joylashgan Janubiy Koreya yuqori texnologiyalar, avtomobilsozlik, mashinasozlik, elektronika va transport vositalari ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi davlat sifatida e'tirof etiladi. O'zbekiston esa Markaziy Osiyodagi strategik geografik joylashuvi, keng ichki bozori, tabiiy va mehnat resurslari hamda izchil olib borilayotgan iqtisodiy islohotlari bilan xalqaro savdo va investitsiya jarayonlarida tobora muhim o'rin egallamoqda.

Janubiy Koreya va O'zbekiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik mustaqillik yillaridan boshlab bosqichma-bosqich rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, so'nggi o'n yillikda ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar yangi sifat bosqichiga ko'tarilib, savdo hajmining oshishi, mahsulot turlarining kengayishi va sanoat kooperatsiyasining rivojlanishi bilan tavsiflanmoqda. Bu jarayonlar O'zbekistonning ochiq iqtisodiyotga o'tish siyosati hamda Janubiy Koreyaning tashqi bozorlardagi faol ekspansiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Xalqaro savdo munosabatlarida tovar tarkibi va savdo tuzilmasi muhim ahamiyatga ega. Mazkur jihatdan, Janubiy Koreyaning O'zbekistonga eksporti asosan yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan sanoat va texnologik

mahsulotlar – avtomobillar, ularning ehtiyot qismlari, temir yo‘l transport vositalari, tibbiy asbob-uskunalar va boshqa mashinasozlik mahsulotlaridan iborat. O‘zbekistonning Janubiy Koreyaga eksporti esa, asosan, xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar bilan ifodalanadi. Bu holat ikki mamlakat iqtisodiyotining o‘zaro to‘ldiruvchanligini va ularning xalqaro mehnat taqsimotidagi o‘rnini yaqqol namoyon etadi.


Shuningdek, global miqyosda raqamli iqtisodiyot va raqamli savdoning jadal rivojlanishi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Raqamli mahsulotlar va xizmatlar savdosi an’anaviy tovar savdosini to‘ldirib, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning ko‘lamini yanada kengaytirmoqda. Janubiy Koreya raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar sohasida yetakchi davlatlardan biri sifatida mazkur yo‘nalishda katta salohiyatga ega bo‘lib, bu kelgusida O‘zbekiston bilan iqtisodiy hamkorlikning yangi istiqbollarini ochib beradi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, Janubiy Koreya va O‘zbekiston o‘rtasidagi savdo munosabatlarini batafsil tahlil qilish ikki mamlakat iqtisodiy aloqalarining hozirgi holatini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi. Tadqiqotda 2025-yil noyabr oyidagi savdo ko‘rsatkichlari hamda so‘nggi yillardagi dinamik o‘zgarishlar asosida eksport-import hajmlari, savdo balansining shakllanishi va asosiy tovar guruhlarining roli tahlil qilinadi. Shu tariqa, ushbu ilmiy ish Janubiy Koreya va O‘zbekiston o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanish tendensiyalarini kompleks yoritishga, ularning o‘zaro manfaatli hamkorlik asosida yanada kengayish istiqbollarini ilmiy jihatdan asoslab berishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot Korea Respublikasining so‘nggi o‘n yillikdagi makroiqtisodiy holatini chuqur va tizimli tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotda korrelyatsion–regression tahlilning klassik yondashuvi qo‘llanildi. Dastlab tanlangan omillar o‘rtasidagi juft korrelyatsiya koeffitsientlari hisoblanib, ularning chiziqli bog‘liqlik darajasi aniqlangan. Omillar o‘rtasida multikollinearlik mavjudligini baholash uchun korrelyatsiya matritsasi tuzildi. So‘ngra ko‘p o‘zgaruvchili chiziqli regressiya modeli qurilib, YaIM natijaviy o‘zgaruvchi sifatida tanlandi. Model parametrlarining ahamiyatliligi Student mezon orqali, umumiy modelning ishonchliligi esa Fisher mezon yordamida baholandi. Determinatsiya koeffitsienti regressiya tenglamasining YaIM o‘zgarishini izohlash darajasini aniqlashda asosiy ko‘rsatkich sifatida qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar.

Koreya Respublikasi iqtisodiyoti tarkibiy jihatdan yuqori darajada diversifikatsiyalashgan bo‘lib, unda sanoat ishlab chiqarishi, xizmatlar sohasi, tashqi savdo hamda innovatsion texnologiyalar yetakchi o‘rin egallaydi. Tadqiqotda foydalanilgan statistik ma’lumotlar yalpi ichki mahsulotning (YaIM) uzoq yillar davomida nisbatan barqaror va izchil o‘sib borayotganini ko‘rsatadi. Juft korrelyatsiya koeffitsientlari tahlili natijalariga ko‘ra, YaIM bilan eksport hajmi o‘rtasida juda kuchli, musbat va statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik mavjud. Mazkur holat Janubiy Koreya iqtisodiyotining tashqi bozorlarga, xususan AQSh, Xitoy va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bozorlariga yuqori darajada integratsiyalashganini tasdiqlaydi.



1-rasm. Koreya Respublikasining YaIM hajmi o'sish dinamikasi¹.

1-rasmda ko'rinib turibdiki, Koreya Respublikasi yalpi ichki mahsulotining 2015–2024 yillar davomida umumiy jihatdan o'sish tendensiyasiga ega ekanini ko'rsatadi. Tahlil qilinayotgan davrda YaIM hajmi nominal ifodada 2015 yildagi 1,54 trln AQSh dollaridan 2024 yilga kelib 1,88 trln AQSh dollariga yetib, uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishni aks ettiradi.

2015–2018 yillarda Koreya Respublikasi iqtisodiyotida izchil va tezlashgan o'sish kuzatilgan. Xususan, YaIM 2015 yilda 1,54 trln dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilga kelib 1,82 trln dollarga yetgan. Ushbu davrda YaIMning o'sishi sanoat ishlab chiqarishining kengayishi, eksport hajmining ortishi hamda yuqori texnologiyali tarmoqlarning rivojlanishi bilan izohlanadi. Ayniqsa, elektronika, avtomobilsozlik va yarimo'tkazgichlar sanoati iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlari bo'lib xizmat qilgan.

2019–2020 yillarda YaIM hajmida nisbiy pasayish va turg'unlik holati kuzatiladi. 2019 yilda YaIM 1,75 trln dollarni tashkil etib, 2018 yilga nisbatan qisqargan, 2020 yilda esa 1,74 trln dollar atrofida shakllangan. Mazkur pasayish global savdo hajmining sekinlashuvi va COVID-19 pandemiyasining salbiy ta'siri bilan bevosita bog'liq bo'lib, tashqi talabning qisqarishi hamda ishlab chiqarish zanjirlaridagi uzilishlar iqtisodiy faollikni cheklagan².

2015–2024 yillardagi YaIM dinamikasi Koreya Respublikasi iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanini, ayrim yillarda global iqtisodiy inqirozlar va pandemiya ta'siri tufayli qisqa muddatli pasayishlar kuzatilgan bo'lsa-da, mamlakat iqtisodiyoti tezkor tiklanish qobiliyatini namoyon etganini tasdiqlaydi. Ushbu holat Koreya Respublikasining eksportga yo'naltirilgan, innovatsion va yuqori texnologiyali iqtisodiy modelining samaradorligini yana bir bor ko'rsatadi³.

Korrelyatsion–regression bog'lanishlar yordamida statistik tahlilda ikki yoki undan ortiq o'zgaruvchilarning o'zaro bog'liqlik darajasini aniqlash imkoniyati mavjud. Ikki o'zgaruvchi o'rtasidagi bog'liqlik ko'lamini baholashda, avvalo, korrelyatsiya koeffitsienti (r) aniqlanadi. Agar r koeffitsienti +1 ga yaqin bo'lsa, o'zgaruvchilar o'rtasida kuchli musbat bog'liqlik

¹ World Bank – Koreya Respublikasi: Jahon rivojlanish ko'rsatkichlari. Makroiqtisodiy ma'lumotlar va tarixiy tendensiyalar. <https://data.worldbank.org/country/korea-rep>

² Koreya Banki – Makroiqtisodiy statistikalar va milliy hisoblar. Rasmiy YaIM, savdo va sektor ma'lumotlari. <https://www.bok.or.kr>

³ Koreya Statistik Axborot Xizmati (KOSIS) – Milliy hisoblar va iqtisodiy ko'rsatkichlar. <https://kosis.kr>

mavjudligini, -1 ga yaqin bo'lsa, kuchli manfiy bog'liqlikni anglatadi. Agar r qiymati nolga yaqinlashsa, o'zgaruvchilar o'rtasida sezilarli statistik bog'liqlik mavjud emasligini bildiradi ⁴.

Omillarning YaIMga ta'sir kuchini aniqlashda regressiya tahlili qo'llanilib, bunda bir nechta mustaqil o'zgaruvchilar (x) orqali bitta natijaviy o'zgaruvchi — YaIM (y) modellastiriladi yoki prognoz qilinadi. Regressiya tahlilining chiziqli va ko'p o'zgaruvchili turlari mavjud bo'lib, ko'p omilli regressiya tenglamasi orqali har bir omilning YaIM hajmiga ta'sir darajasi aniqlanadi. Mazkur statistik usullar majmui yordamida Koreya Respublikasi YaIMining o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy ichki va tashqi omillar aniqlanib, ularning iqtisodiy ahamiyati baholanadi.

Tadqiqotda ekonometrik modelni shakllantirishdan asosiy maqsad korrelyatsion–regression tahlil mexanizmini yanada chuqurroq ochib berish hamda tanlangan omillar orqali YaIM hajmining ortishida qaysi omillar hal qiluvchi rol o'ynayotganini ilmiy asosda yoritishdan iborat⁵.

1-jadval. Korrelyatsion-regression statistik tahlil uchun tanlab olingan natijaviy va ta'sir etuvchi omillar⁶

Yillar	Y	X1	X2	X3	X4	X5
2015	1539212301136	529797582127	630586518886	848285493865	51014947	540467172582
2016	1579150518945	501960383970	601861440814	868161970420	51217803	556279358269
2017	1710196756713	587337161919	664392456663	933178031351	51361911	609341125134
2018	1824251454307	643142886152	719710064860	1010366915530	51585058	638063094815
2019	1751045752055	602460189255	648610576583	996988906838	51764822	589165470682
2020	1744070276373	539436709934	603713417774	992713590447	51836239	581757770157
2021	1942313560966	698601348291	764083221346	1105182849940	51769539	643927536451
2022	1799363116867	814936711591	815019022384	1044916862990	51672569	584995586194
2023	1844800934392	755197457230	762299062736	1086304079347	51712619	599993260127
2024	1875388209407	755486201522	831889172091	1078357751902	51751065	635804309159

Ko'p omilli korrelyatsion bog'lanishning xususiyati shundaki, uning regressiya tenglamasida bir necha muhim va mohiyatli omillar ishtirok etadi. Bu omillardan eng mohiyatlisini to'g'ri tanlash va ularni regressiya tenglamasiga kiritish katta ahamiyatga egadir.

Qaysi omillarni regressiya tenglamasiga kiritish lozimligini aniqlash uchun omillar o'rtasidagi juft korrelyatsion koeffitsientlar matritsasini tuzamiz (2-jadval).

2-jadval. Ta'sir qiluvchi omillarning o'zaro juft korrelyatsion koeffitsientlar matritsasi⁷

	Y	X1	X2	X3	X4	X5
Y	1					
X1	0,767071042	1				
X2	0,765288918	0,963734691	1			
X3	0,974415685	0,831254367	0,792808474	1		
X4	0,842911756	0,569057848	0,479670023	0,875260331	1	
X5	0,88663642	0,548755759	0,635337222	0,76876714	0,622898779	1

2-jadvalda Koreya Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (Y) hamda unga ta'sir etuvchi asosiy makroiqtisodiy omillar o'rtasidagi juft korrelyatsion koeffitsientlar matritsasi keltirilgan. Jadval ma'lumotlari iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi chiziqli bog'liqlik darajasini aniqlash va ularning YaIM o'sishiga ta'sirini baholash imkonini beradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, yalpi ichki mahsulot bilan xizmatlar sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymat (X3) o'rtasida juda kuchli musbat bog'liqlik mavjud bo'lib, korrelyatsiya koeffitsienti $r =$

⁴ Krugman, P., Obstfeld, M., Melitz, M. – Xalqaro Iqtisodiyot: Nazariya va Siyosat. Savdo va makroiqtisodiy integratsiya. Pearson Education, 11-nashr.

⁶ Xalqaro Valyuta Fondi (IMF) – Koreya Respublikasi: IV Modda Konsultatsiyasi hisobotlari. Iqtisodiy ko'rsatkichlar va siyosat tavsiyalari. <https://www.imf.org/en/Countries/KOR>

0,9744 ni tashkil etadi. Mazkur holat Koreya Respublikasi iqtisodiyotida xizmatlar sohasi, xususan moliya, axborot texnologiyalari, logistika va raqamli xizmatlarning YaIM o'sishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, yalpi ichki mahsulot bilan sanoat (shu jumladan qurilish) qo'shilgan qiymati (X5) o'rtasidagi bog'liqlik ham yuqori darajada bo'lib, $r = 0,8866$ ga teng. Bu ko'rsatkich Koreya Respublikasi iqtisodiyotining yuqori texnologiyali sanoat ishlab chiqarishiga tayangan holda rivojlanayotganini tasdiqlaydi.

Yalpi ichki mahsulot va aholi soni (X4) o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti $r = 0,8429$ ni tashkil etib, demografik omillarning ichki iste'mol, mehnat resurslari va iqtisodiy faollik orqali iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi.

Tashqi savdo ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra, yalpi ichki mahsulot bilan tovarlar va xizmatlar importi (X1) o'rtasidagi bog'liqlik $r = 0,7671$, tovarlar va xizmatlar eksporti (X2) bilan esa $r = 0,7653$ darajasida shakllangan. Bu natijalar Koreya Respublikasi iqtisodiyotining tashqi savdoga yuqori darajada bog'liqligini va global qiymat zanjirlarida faol ishtirok etayotganini ko'rsatadi.

2-jadval ma'lumotlari Koreya Respublikasi yalpi ichki mahsulotining o'sishida xizmatlar sohasi, sanoat ishlab chiqarishi hamda tashqi savdo asosiy iqtisodiy drayverlar sifatida namoyon bo'layotganini ko'rsatadi. Yuqori korrelyatsiya koeffitsientlari tanlangan omillarning iqtisodiy jihatdan asosli ekanini va ularni keyingi bosqichda ko'p omilli regressiya modeliga kiritish maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

O'tkazilgan ko'p omilli regressiya tahlili natijalari Koreya Respublikasi yalpi ichki mahsulotiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'lanishlarning yuqori darajada ekanini ko'rsatadi. Regressiya statistikasi bo'yicha ko'p martalik korrelyatsiya koeffitsienti (Multiple R) 0,9983 ni tashkil etib, bu natijaviy ko'rsatkich — yalpi ichki mahsulot bilan tanlangan omillar o'rtasida juda kuchli chiziqli bog'liqlik mavjudligini anglatadi⁸.

Dispersiya tahlili (ANOVA) natijalari regressiya modelining umumiy ahamiyatligini tasdiqlaydi. Xususan, F mezonining haqiqiy qiymati 228,04 ni tashkil etib, Significance F = $5,33 \times 10^{-5}$ darajada aniqlangan. Mazkur natija modelning statistik jihatdan yuqori darajada ishonchli ekanini va nol gipotezaning rad etilishini ko'rsatadi. Ya'ni, regressiya tenglamasiga kiritilgan omillarning kamida bittasi yalpi ichki mahsulotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, degan alternativ gipoteza qabul qilinadi.

Xulosa

Mazkur maqolada Janubiy Koreya va O'zbekiston o'rtasidagi savdo aloqalarining so'nggi holati tahlil qilinadi hamda 2025-yil noyabr oyidagi asosiy tendensiyalar va uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari Janubiy Koreya foydasiga katta ijobiy savdo balansiga ega bo'lgan barqaror va jadal rivojlanayotgan savdo munosabatlarini ko'rsatadi. 2025-yil noyabr oyida Janubiy Koreyaning O'zbekistonga eksporti taxminan 203 mln AQSh dollarini, importi esa 1,56 mln AQSh dollarini tashkil etib, sezilarli darajadagi savdo profitsitini yuzaga keltirdi.

2024-yil noyabr oyiga nisbatan Janubiy Koreyaning O'zbekistonga eksporti keskin oshgan, O'zbekistondan import esa biroz kamaygan. Eksport hajmining o'sishi asosan yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan sanoat mahsulotlari, xususan, avtomobillar va ularning ehtiyot qismlari, o'z-o'zidan harakatlanuvchi temir yo'l transport vositalari hamda tibbiy asbob-uskunalar eksporti hisobiga ta'minlangan. Bu holat Janubiy Koreyaning texnologik va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi nisbiy ustunligini aks ettiradi. Shu bilan birga, Janubiy Koreyaning O'zbekistondan importi hajm jihatidan cheklangan bo'lib, asosan xomashyo yoki yarim tayyor mahsulotlar bilan ifodalanadi. Janubiy Koreya kapital va texnologiya talab qiladigan mahsulotlar yetkazib beruvchi sifatida namoyon bo'lsa, O'zbekiston asosan cheklangan turdagi xomashyo va oraliq mahsulotlar eksportchisi sifatida ishtirok etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. World Bank. World Development Indicators: Republic of Korea. Washington, DC, 2024.
2. International Monetary Fund. Republic of Korea: Article IV Consultation Report. IMF Country Report. Washington, DC, 2023.
3. OECD. OECD Economic Surveys: Korea. Paris: OECD Publishing, 2023.
4. Bank of Korea. Macroeconomic Statistics and National Accounts. Seoul, 2024.
5. Korea Statistical Information Service (KOSIS). National Accounts and Economic Indicators. Seoul, 2024.
6. Statista. South Korea: GDP and Macroeconomic Indicators. Hamburg, 2024.
7. Trading Economics. South Korea Economic Indicators Database. 2024.
8. Bank for International Settlements. Annual Economic Report. Basel, 2023.
9. Krugman, P., Obstfeld, M., Melitz, M. International Economics: Theory and Policy. 11th ed. Pearson Education, 2022.
10. Acemoglu, D., Laibson, D., List, J. Macroeconomics. Pearson Education, 2023.